

OLTIN MEROS VA BOLA RUHIYATI:OTA - ONALAR MUTOLAA QILISHI SHART BO'LGAN ASARLAR

Davronova Sevinch Lazizjon qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti ijtimoiy - gumanitar fanlar kafedrası

Pedagogika yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Farzand tarbiyasida milliy qadriyatlar va zamonaviy psixologik yondashuvlarning o'zaro uyg'unligini ko'rishimiz mumkin*

Milliy qadriyatlar bolaning kim ekanligini, qaysi avloddan kelib chiqqanligini o'zligini tanitishga yordam beradi. Har bir bola birinchi navbatda oilasidan tarbiya oladi. Shunday ekan, ota - onalarimizning o'zlari tarbiyalangan bo'lishlari lozim. Ota - onalarimiz tarbiyalashni avvalo o'zlaridan boshlasa bolalar ota - onalardan o'rnak olib, ularga taqlid qilib o'sib borishadi. Zamonaviy texnologiyalardan ota-onalar qanday foydalanish kerakligini o'rgatishlari va o'zlari ham shu tartibga rioya qilishlari kerak. Vaqt o'tib borar ekan zamon ham rivojlanib bormoqda. Kundan kunga yangi ixtirolar kashf qilinmoqda. Bunday jarayonda bola tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratilishi lozim. Bolalarga yoshligidan kitob mutolaa qilishni o'rgatish lozim. Buning uchun, albatta, uyda ota onalar ham kitob mutolaa qilishlari lozim. Ota onalar ko'proq bola tarbiyasiga zarur bo'ladigan kitoblarni mutolaa qilishlari kerak. Masalan : Kaykovusning "Qobusnoma " , Abdulla Avloniyning " Turkiy Guliston yoxud axloq " va Obiddin Mahmudovning " Farzandnoma " asarlarini mutolaa qilishsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu asarlar ham bola tarbiyasida ham o'zlarini anglashga yordam beradigan durdona asarlardir. Kalit so'zlar: Farzandnoma , mutolaa, milliy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar , bola, ota - ona ,tarbiya, odob, axloq, Turkiy Guliston yoxud axloq , Qobusnoma. Hozirgi kunda tarbiya juda sustlashadi bormoqda. Bunga sabab esa zamonning juda tez rivojlanib borishi. Kundan kunga turli xil zamonaviy texnologiyalarning ko'payib borishi bolalarni tarbiyasiga yomon ta'sir ko'rsatmoqda. Ota-onalarning ko'p vaqti ishda o'tishi va farzandlariga yetarlicha e'tibor qaratmasligini ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Farzandlarga yoshligidan telefon emas , balki kitob olib berishimiz kerak. Farzandlaringizga shunchaki kitoblar olib bermang ,balki ular bilan birga kitoblar sotib oling va oila davrasida kitoblar mutolaa qilishni o'rganing va o'rgating. Hayotni qanday yashash o'zingizni qo'lingizda. Hayotdan lazzatlanib yashashingiz uchun oilangiz tinch bo'lishi kerak. Oilaning tinch , hotirjam, mustahkam va birdam bo'lishi uchun esa siz farzandlaringizga to'g'ri tarbiya berishingiz lozim. Farzandlaringizni to'g'ri, odobli, axloqli, sabrli, kamtar, va komil inson bo'lib yetishishini xohlasangiz, avvalambor, tarbiyani o'zingizdan boshlang. Bunda sizga yuqorida sanab o'tilgan asarlar yordam beradi. Sharq pedagogikasida tarbiya haqida so'z ketganda birinchi navbatda

Kaykovusning “Qobusnoma “ asari ko‘z oldimizga keladi. Ming yil avval ota o‘z farzandga nasihat tarzida yozgan bu kitob, bugungi kunda ham ota-onalar uchun eng mukammal qo‘llanma bo‘lib qolmoqda. Kaykovus o‘z farzandi Gilanshohga qarata yozgan o‘gitlarida tarbiyani shunchaki nazariya emas, balki hayotiy zarurat sifatida ko‘rsatadi. Ilm va hunar uyg‘unligi : Muallif bolaga faqat ilm berish kifoya emasligini, uni hayotda o‘z yo‘lini topishi uchun, albatta, biror hunarga yo‘naltirish shartligini uqtiradi. “Hunarsiz kishi mevasi daraxt kabidir”, degan fikr bugungi “kasbiy ko‘nikmalar “ tushunchasi bilan hamohangdir. Muloqot madaniyati: Asarda bolani qanday gapirish, qanday tinglash va jamiyatda o‘zini tutishga o‘rgatish bo‘yicha aniq tavsiyalar berilgan. Bu bugungi zamonaviy etika va muloqot psixologiyasining ilk ko‘rinishidir. Do‘st tanlash: Kaykovus bolaning atrofidagi muhit uning kelajagini belgilashini juda erta aniqlagan. U farzandni yomon ulfatlardan asrash - tarbiyaning yarmi ekanini ta’kidlaydi. [1] Ushbu so‘zlardan ko‘rinib turibdiki bola oppoq qog‘oz misoli unga qanday ko‘rinishda yozsangiz shuni ko‘rsatib beradi. Agar “Qobusnoma” ota - ona uchun hayotiy tajriba bo‘lsa, Abdulla Avloniyning “ Turkiy Guliston yoxud axloq “ asari millatning kelajagini belgilovchi strategik dasturdir. Avloniy bobomizning: “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”, - degan hayqirig‘i bugun ham har bir ota - onaning qalbida aks - sado berishi shart. Asarda tarbiya to‘rt qismga bo‘lib ko‘rsatiladi, bular ota - onalar uchun haqiqiy “yo‘l xaritasi”dir: 1. Badan tarbiyasi: Sog‘lom tanda - sog‘lom aql. Avloniy bolaning jismoniy baquvvat bo‘lishini tarbiyaning birinchi sharti deb bilgan. 2. Fikr tarbiyasi: “ Bu - bugungi kunda eng ko‘p gapiraloyatgan tanqidiy fikrlash” dir. Bolani mustaqil fikrlashga, oqni qoradan ajratishga o‘rgatish – ota - onaning eng katta xizmati. 3. Axloq tarbiyasi: Yaxshi xulqlarni (sabr, intizom, adolat) shakllantirish va yomon odatlardan poklanish. 4. Til tarbiyasi: O‘z ona tilini e‘zozlash va so‘zlashish madaniyati:[2] “Qobusnoma “ da shaxsiy kamolotga urg‘u berilgan bo‘lsa, Avloniyda bu kamolot millat va jamiyat manfaati bilan bog‘lanadi. Ya‘ni yaxshi tarbiya olgan bola nafaqat o‘ziga balki, butun xalqqa foyda keltirishi kerak. Insoniyat tarixida shunday asarlar borki, ular vaqt sinovidan o‘tib, har bir davr uchun dolzarbligini saqlab qoladi. Shulardan biri - “Farzandnoma” dir. Bu asar shunchaki nasihatlar to‘plami emas, balki sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishning ma’naviy xaritasidir. Biz farzandimizga dunyo ilmlarini berishga intilyapmiz, ammo uning qalbini qanday to‘ldirishni ba‘zan unutib qo‘yamiz.[3] Aynan “Farzandnoma” asari bizga ota-onalik mas’uliyatini va bola qalbining nozik qirralarini eslatib turadi. Farzand tarbiyasi - bu shunchaki vaqtinchalik vazifa emas, balki millatning davomiyligini ta’minlovchi muqaddas zanjirdir. Insoniyat necha asr o‘tmasin, odob, ilm va go‘zal axloqqa bo‘lgan ehtiyojini yo‘qotmaydi. Bugungi axborot asrida, farzandlarimiz turli yot g‘oyalar qurshovida qolayotgan bir paytda, bizga chetdan “megatartiblar” izlash shart emas. Bizning o‘z “oltin xazinamiz” bor. Faqatgina ushbu asarlarni javondagi bezak emas, balki

kundalik hayotdagi qo'llanmaga aylantirishimiz lozim. Zero ota-ona o'z ustida ishlamas ekan, kitob o'qimas ekan, farzandidan buni talab qilishi samarasizdir. Tarbiya - bu avvalo o'zimizni isloh qilishdan boshlanadigan jarayon. Kelajak avlodning qanday bo'lishi esa bugun biz qaysi kitobni varaqlayotganimizga va undan qanday xulosa chiqarayotganimizga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Kaykovusning "Qobusnoma " asari, "Sharqona odob - axloq va hayotiy tajribalar" to'plami.
2. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq ". Milliy pedagogikamizning ilk zamonaviy darsligi.
3. Obiddin Mahmudovning "Farzandnoma " asari. Oila va farzand tarbiyasiga oid hikmatlar xazinasi.